
5-umumta'lim maktabida o'quvchilar uchun "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etildi

Qo'shtepa tumanidagi 5-umumta'lim maktabida o'quvchilar uchun tuman Qo'riqlash bo'limining tashabbusi bilan "Ochiq eshiklar kuni" tashkil etildi. Tuman mudofa bo'limi, FVB va Milliy gvardiya huzuridagi psixolog inspektorlar bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirda viloyat Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari, podpolkovnik Bekzod Mamatov ishtirok etdi.

Tadbir davomida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Shuningdek, o'quvchilarga qo'riqlash xizmatining afzalliklari va tezkor harakatlanuvchi guruh haqida hamda harbiy anjom-aslahalar, yong'in havfsizligini oldini olish to'g'risida tushunchalar berildi. Qolaversa o'quvchilar kamondan o'q otish bo'yicha ham qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Tadbirda maktab jamoasi viloyat qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi va maktab direktori Dilafuz Dadaxonovaga topshirildi.











2024-10-22 16:03:58